

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Isroilov Qobuljon Toshtemirovich

Samarqand Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi, PhD

Haydarova Noila Pardaboy qizi

Husanova Mehribon Sherzod qizi

Samarqand Zarmed universiteti talabalari

Annotatsiya. Maqolada shaxsning rivojlanishini, uni kasbiy faoliyatga tayyorlashni akmeologik yondashuv asosida takomillashtirishda akmeogramma metodining ahamiyati yoritilgan. Akmeogramma professiogramma va psixogrammaga nisbatan individuallikning yuqori darajada namoyon etilishi bilan farqlanishi va uning yordamida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi, ijodkorlik qobiliyati, yangilik yaratishga xohishi va intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan resurslar aniqlanishi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: akmeologiya, akmeologik yondashuv, akmeologik qobiliyatlar, akmeogramma, psixogramma, avtopsixologik kompetentlik, kreativlik, professiogramma, akmeotexnologiya, avtokognitiv qobiliyat, kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik qobiliyati, akmeolog, kasbiy ijodkorlik, shaxsiy-professional rivojlanish.

Аннотация. В статье отображено о задачи совершенствование подготовки к профессиональной деятельности по основы акмеологического подхода, развитие личности в обучение, необходимости акмеологического подхода при подготовки к профессиональной деятельности личности.

Ключевые слова: акмеологического подхода, профессиональной подготовки, профессиональной зрелости, профессиональной направленность подготовка к профессиональной деятельности,

Abstract. The improvement of preparation for professional activity on bases of acmeological approach, development of the personality in training, need of acmeological approach at preparation for professional activity of the personality tasks are displayed in this article.

Key words: acmeological approach, professional activity, personality tasks, preparation for professional activity, displayed in this article.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida o‘quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo‘naltirish, oliy ta’lim talabasining kasbni egallashida akmeologik yetishi, yuqori malakaga ega bo‘lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta’lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Akmeologik yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish, maqsadga yo‘naltirilgan psixologo-pedagogik shartini tashkil etish, (shuningdek, shaxsni akmeologik yo‘naltirishni shakllantiruvchi metodlar va usullar), pedagogik ta’sir yo‘nalishining ijobiyligi o‘zgarishiga rioya etishni ta’minladi. V.D. Shadrikovning e’tirofiga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim tizimi har qanday pedagogni yuksak darajadagi tilni bilish madaniyatiga, o‘z fikr va mulohazalarini aniq va ravon turli til imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ifodalay bilish, o‘zining predmeti yuzasidan har tomonlama mukammal bilimga ega bo‘lishi va uni o‘qitish usullarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Akmeologiya majmuaviy, integrativ fan sifatida, insonning rivojlanish va tiklanish dinamikasida, shaxs ijodiy potensialida o‘z-o‘zini namoyon etish qonuniyatlari va omillari hamda ta’limiy va kasbiy yutuqlarga erishish yo‘llarini tadqiq etadi. Subbyektning kasbiy faoliyat muammosi akmeologiyada dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy ta’limning akmeologik modeli shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi sifatga erishishga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti, akmeologik yo‘naltirilgan ta’lim yangi integrativ fikrlash usullari, zamonaviy hayotga moslashtirishda va o‘z-o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga ega bo‘lgan bo‘lg‘usi mutaxassislarni yaxlit va barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy mutaxassisda akmeologik fikrlashni shakllantirish va kreativ faoliyat usullari, innovatsiyaga, muvaffaqiyatga, kasbiy mohirlikka intilish, ijodiy potensialni namoyon etish qobiliyati, akmeologik va umumiy kasbiy madaniyatning zaruriy komponentlari hisoblanadi. Mutaxassislarni tayyorlashning refleksivli o‘z-o‘zini faollashtirish texnologiyasi keng qo‘llaniladi va kasbiy faoliyatni predmetli va ijtimoiy mazmunini yaratish imkonini beradi. Insonni yoshligidanoq ma’lum bir sohaga yo‘naltira oluvchi texnologiyalarning eng birinchisi va muhim mexanizmi – akmeogrammadir.

Akmeogramma–shaxsning kasbiylashuvi va muayyan mehnat ob’yektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar sharoit va omillar tizimini

namoyon etadi. Akmeogramma doim individual bo‘ladi, u shaxsning imkoniyatlari va istiqbollarini, xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Akmeogramma ma’lumotlar bazasi orqali olib boriladi, uning ko‘rsatkichlar mumkin qadar foizlarda belgilanadi. Akmeogramma akmeografik yondashuvning asosiy metodi va u progressiv rivojlanishga hamda shaxsning professionalizmi konkret mehnat sub’yektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Talabalar akmeogrammasi individual tavsifga ega, rasmiy ravishda bo‘lib, u samarali faoliyat ko‘rsatayotgan sub’yektning individual “kesimi”ni, uning imkoniyatlari va istiqbollarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini o‘zida mujassam etadi.

Akmeogramma professiogramma va psixogrammaga nisbatan individuallikning yuqori darajada namoyon etilishi bilan farqlanadi. Akmeogramma talaba faoliyatining barcha jihatlari (kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, har kungi munosabat, shaxsiy rivojlanish va faoliyatning umumiy natijasi) hamda bundan kelib chiqib, bo‘ljak kadrning individual psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

Akmeologiya pedagogika bilan hamkorlikda quyidagi uncha oddiy bo‘lmagan masalani yechishi zarur: inson o‘zining hayoti yo‘lida qanday alohida xususiyatga ega bo‘lgan, ta’kidlangandek mikroakmalarga erishib borishi kerakki, ya’ni u kelgusida katta “makroakma”ni hosil qilsin. Shunga ko‘ra, mutaxassislar tayyorlash jarayonida fanlarni integratsiyalab kredit modulli o‘qitish bilan bir vaqtda, talabaning individual istiqbol rejalarini ishlab chiqish, individual rivojlantirish dasturi bilan ishlash, kasbiy kompetensiyani shakllantirish, o‘quv portfolioni yuritish, kasbiy ta’lim akmeologiyasi fakultativ maxsus kursni olib borish, akmetexnologiyalarni, kreativlikni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi metodlarni qo‘llash, guruh rahbarining ma’naviyat mashg‘ulotlarini mukammallashtirish, kasbiy yo‘naltirish faol o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish kabi ishlarni amalga oshirish natijasida har bir talabada o‘ziga xos mikro akmelarga va ularning majmuasida kasbiy tayyorlik makroakmenga erishishga harakat qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, akmeologik yondashuvda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya berish, faoliyatda o‘z-o‘zini takomillashtirish va muvaffaqiyatni o‘zini kasbida amalga oshirish istagini shakllantirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilab turish qobiliyati va ehtiyojlarini, ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirish, kasbiy mahorat cho‘qqilarini egallashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuvni ta’lim amaliyotida qo‘llash orqali talaba shaxsining akmeologik yo‘nalishini shakllantirish shuningdek, kasbiy kreativ qobiliyatni

rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akmeologiya: uchebnik/pod red. A.A.Derkacha. M.: Izdatelstvo RAGS.2006, - 688s
2. Isroilov Q.T., Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini tashkillashtirish/ “Tafakkur ziyosi” Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-uslubiy jurnali. 03. 2023 yil.
3. Ma’murov Bahodir Baxshullayevich. Bo‘ljak tarix o‘qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi Dis...ped. fan. dok. – T., 2018. –224 bet.
4. Saliyev A.Sh. Yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyati// Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog‘lom turmush tarzining o‘rni.-Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2008. -227 bet.
5. Shadrikov V.D. Novaya model spetsialista: innovatsionnaya podgotovka i kompetentnostnyy podxod // Vyssheye obrazovaniye segodnya. - 2004 №8.- S. 120-128.
6. Ernazarova G.O. Akmeologik yondashuvni amalga oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari// Ta’lim, fan va innovatsiya. IMJ. T.: 2017 yil, №3, -B 19-21.